



## AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA MILLIY VA XALQARO MEXANIZMLAR UYG‘UNLIGI

**Toshmamatova Shaxrizoda Dilmurod qizi**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti  
“Yurisprudensiya” yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

O‘zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini ta‘minlash masalasi so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va yaratilgan institutsional mexanizmlar xalqaro majburiyatlar, ayniqsa BMT doirasidagi konvensiyalar talablariga muvofiqlashtirilgan holda rivojlantirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha asosiy xalqaro hujjatlardan biri - 1979-yilda qabul qilingan Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risidagi konvensiyaga (CEDAW) qo‘shilgan [1]. Mazkur konvensiya davlatlardan ayollarga nisbatan har qanday kamsitishni bartaraf etish, gender tenglikni ta‘minlash va ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy hayotdagi ishtirokini kengaytirishni talab etadi. O‘zbekiston ushbu konvensiyaga qo‘shilganidan so‘ng, milliy qonunchilikni moslashtirish bo‘yicha qator choralarni amalga oshirdi.

Milliy darajada qabul qilingan muhim hujjatlardan biri 2019-yildagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonundir [2]. Ushbu qonun gender tenglik tamoyillarini huquqiy jihatdan mustahkamlab, davlat organlari va tashkilotlar zimmasiga ayollar va erkaklar uchun teng sharoitlar yaratish majburiyatini yuklaydi. Qonunda gender diskriminatsiyasi tushunchasi aniq belgilangan bo‘lib, bu xalqaro standartlarga mos keladi. Shu bilan birga, qonun gender ekspertizasi institutini joriy etish orqali qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ayollar va erkaklarga ta‘sirini baholash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, 2019-yilda qabul qilingan yana bir muhim hujjat - “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonundir. Mazkur qonun ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va ularga yordam ko‘rsatish mexanizmlarini belgilaydi. Xususan, himoya orderi instituti joriy etilib, bu orqali zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarni tezkor himoya qilish imkoniyati yaratilgan. Bu norma xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan mexanizmlardan biri bo‘lib, O‘zbekiston qonunchiligining xalqaro standartlarga yaqinlashayotganini ko‘rsatadi.

Institutsional jihatdan ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil etilib [5], u ayollar masalalari bo‘yicha yagona davlat siyosatini yurituvchi asosiy organ sifatida faoliyat olib bormoqda. Ushbu qo‘mita ayollar bandligini ta‘minlash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, zo‘ravonlik holatlarining oldini olish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalarida muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, Mahalla tizimi orqali joylarda xotin-qizlar bilan ishlash mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ham milliy tizimning o‘ziga xos jihatlaridan biridir.



Xalqaro standartlar bilan moslikni baholashda yana bir muhim jihat - monitoring va hisobot tizimidir. O‘zbekiston muntazam ravishda CEDAW qo‘mitasiga milliy hisobotlarini taqdim etib kelmoqda. Ushbu hisobotlarda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilgan natijalar va mavjud muammolar yoritiladi. CEDAW qo‘mitasi esa o‘z tavsiyalarini berib, milliy siyosatni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon milliy va xalqaro mexanizmlar o‘rtasidagi uzviy aloqani ta‘minlaydi. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, qonunchilik darajasida gender tenglik ta‘minlangan bo‘lsa-da, amaliyotda ayrim stereotiplar va ijtimoiy qarashlar ayollarning to‘liq huquqlaridan foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida ayollar bandligi, ta‘limga kirish imkoniyati va iqtisodiy faolligi bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa xalqaro standartlar bilan to‘liq uyg‘unlikka erishish uchun nafaqat qonunchilikni, balki ijtimoiy ongini ham o‘zgartirish zarurligini ko‘rsatadi. Yana bir muhim jihat - ayollarning siyosiy faolligini oshirish masalasidir. So‘nggi yillarda parlament va mahalliy kengashlarda ayollar ulushi sezilarli darajada oshgan bo‘lsa-da, hali ham erkaklar bilan to‘liq teng darajaga yetgani yo‘q. Xalqaro standartlar esa ayollarning qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirokini ta‘minlashni talab qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan konvensiyalar, xususan, 1979-yilda qabul qilingan Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW) ayollar huquqlarini ta‘minlashda davlatlar zimmasiga aniq va majburiy vazifalarni yuklaydi. Ushbu konvensiya ko‘pincha “ayollar uchun xalqaro huquqlar bill’i” sifatida e‘tirof etilib, unga qo‘shilgan davlatlar ayollar va erkaklar o‘rtasida tenglikni ta‘minlash bo‘yicha kompleks choralar ko‘rishi shartligini belgilaydi. Konvensiyaning 2-moddasiga muvofiq, ishtirokchi davlatlar ayollarga nisbatan har qanday kamsitishni qoralaydi va uni bartaraf etish uchun tegishli siyosat yuritishga majburdir. Bu majburiyat milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishni, diskriminatsiyaga qarshi aniq huquqiy normalarni joriy etishni hamda ularning amalda ishlashini ta‘minlashni o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, davlatlar nafaqat qonunlar qabul qilishi, balki ularning ijrosini ta‘minlovchi samarali mexanizmlarni ham yaratishi zarur. CEDAW doirasida davlatlarning yana bir muhim majburiyati - ayollarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini ta‘minlashdir. Konvensiyaning 7-moddasida ayollarning saylash va saylanish huquqi, davlat boshqaruvida qatnashish imkoniyatlari kafolatlanadi. Bu esa davlatlardan saylov tizimi, siyosiy partiyalar faoliyati va davlat xizmatida gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Amaliyotda bu kvotalar joriy etish, ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayinlashni rag‘batlantirish kabi mexanizmlarda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, konvensiya ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga alohida e‘tibor qaratadi. 11-moddaga ko‘ra, davlatlar ayollarga mehnat sohasida erkaklar bilan teng sharoitlar yaratishi, teng mehnat uchun teng haq to‘lashni ta‘minlashi, homiladorlik va onalik bilan bog‘liq diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Bu majburiyatlar davlatlardan mehnat qonunchiligini takomillashtirish, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va ish beruvchilar ustidan nazoratni kuchaytirishni talab qiladi.

Ta‘lim sohasida ham davlatlar zimmasiga muhim vazifalar yuklatilgan. Konvensiyaning 10-moddasida ayollarning barcha darajadagi ta‘limga teng kirish imkoniyati, o‘quv



dasturlarida gender stereotiplarini bartaraf etish va qizlarning ilm-fan hamda kasb-hunar sohalarida faol ishtirokini rag‘batlantirish belgilangan. Bu esa davlat siyosatida ta‘lim tizimini inklyuziv va tenglikka asoslangan holda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

CEDAW, shuningdek, ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish masalasini ham qamrab oladi. Garchi konvensiyaning dastlabki matnida zo‘ravonlik alohida modda sifatida ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, CEDAW qo‘mitasining umumiy tavsiyalari (xususan, 19- va 35-sonli tavsiyalar) zo‘ravonlikni diskriminatsiyaning bir shakli sifatida e‘tirof etadi. Shu asosda davlatlar zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va aybdorlarni jazolash bo‘yicha samarali choralarni ko‘rishi shart.

Davlatlarning yana bir muhim majburiyati muntazam ravishda hisobot berishdir. CEDAW konvensiyasiga muvofiq, ishtirokchi davlatlar har to‘rt yilda BMTning tegishli qo‘mitasiga milliy hisobot taqdim etadi. Ushbu hisobotlarda amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalar va mavjud muammolar aks ettiriladi. Qo‘mita esa ushbu hisobotlarni ko‘rib chiqib, davlatlarga tavsiyalar beradi. Bu mexanizm xalqaro monitoring va nazorat tizimining muhim elementi hisoblanadi.

Milliy siyosat va xalqaro talablar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari zamonaviy huquqiy davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ayollar huquqlarini ta‘minlash sohasida ushbu uyg‘unlik davlat siyosatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ilmiy yondashuv nuqtai nazaridan, integratsiya jarayoni xalqaro normalarni milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilish, ularni institutsional mexanizmlar orqali amaliyotga joriy etish hamda natijadorlikni monitoring qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Birinchi bosqich - normativ-huquqiy moslashtirish jarayoni bo‘lib, bunda xalqaro konvensiyalar va standartlar milliy qonunchilikka inkorporatsiya qilinadi. O‘zbekiston misolida bu jarayon ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta‘minlash, zo‘ravonlikka qarshi kurashish va gender tenglikni mustahkamlashga qaratilgan qonunlarning qabul qilinishi orqali namoyon bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayon “huquqiy transplantatsiya” yoki “normativ uyg‘unlashtirish” sifatida talqin qilinadi. Biroq, faqat normativ darajadagi moslik integratsiyaning to‘liq amalga oshganini anglatmaydi.

Ikkinchi bosqich - institutsional integratsiya bo‘lib, bunda xalqaro talablarni amalga oshiruvchi davlat organlari va ijtimoiy institutlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Masalan, xotin-qizlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi davlat qo‘mitalari, ombudsman institutlari va mahalla tizimi orqali joylarda muammolarni aniqlash va hal etish mexanizmlari shakllantiriladi. Shu bilan birga, gender masalalariga ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkilotlari ham ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy tahlillarga ko‘ra, aynan institutsional mexanizmlarning samaradorligi integratsiya darajasini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Uchinchi bosqich - amaliy implementatsiya va monitoring jarayonidir. Bu bosqichda qabul qilingan qonunlar va siyosatlarning real hayotdagi ta‘siri baholanadi. Xalqaro tashkilotlarga taqdim etiladigan milliy hisobotlar, indikatorlar tizimi va statistik ma‘lumotlar orqali natijadorlik o‘lchanadi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tadqiqotlar ko‘rsatadiki, integratsiya jarayonining muvaffaqiyati faqat huquqiy hujjatlar bilan emas, balki ularning amalda qanday ishlashi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, milliy siyosat va xalqaro talablar o‘rtasidagi integratsiya jarayonida bir qator muammolar mavjud.



Birinchiidan, normativ va amaliy daraja o‘rtasidagi tafovut muammosi kuzatiladi. Ya’ni, qonunchilik xalqaro standartlarga mos bo‘lsa-da, amaliyotda ularning to‘liq ijrosi ta’minlanmaydi. Bu holat ko‘pincha institutsional salohiyatning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi yoki nazorat mexanizmlarining sustligi bilan izohlanadi.

Ikkinchiidan, ijtimoiy-madaniy omillar integratsiya jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda saqlanib qolayotgan gender stereotiplari va an’anaviy qarashlar ayollar huquqlarini to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda bu holat “norasmiy institutlar qarshiligi” sifatida talqin qilinadi. Bu esa huquqiy islohotlarni ijtimoiy ong bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Uchinchiidan, monitoring va baholash tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi ham muammo sifatida qayd etiladi. Ko‘pincha statistik ma’lumotlar yetarli darajada aniqlik va tizimlilikka ega emas, bu esa siyosat samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi. Xalqaro standartlar esa aniq indikatorlar va dalillarga asoslangan baholash tizimini talab etadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir qator ilmiy asoslangan yechimlar taklif etiladi. Avvalo, normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bu borada javobgar institutlar o‘rtasida aniq vakolatlar taqsimoti va samarali koordinatsiya tizimini yaratish muhim. Ikkinchiidan, ijtimoiy ongni o‘zgartirishga qaratilgan ma’rifiy dasturlarni kengaytirish lozim. Ta’lim tizimi va ommaviy axborot vositalari orqali gender tenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Uchinchiidan, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish talab etiladi. Zamonaviy statistik metodlar va raqamli texnologiyalar asosida gender indikatorlarini ishlab chiqish va ularni muntazam tahlil qilish integratsiya jarayonining shaffofligini oshiradi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish va ilg‘or amaliyotlarni joriy etish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, milliy siyosat va xalqaro talablar o‘rtasidagi integratsiya murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u normativ, institutsional va amaliy darajalarda uyg‘unlikni talab etadi. Mavjud muammolarni ilmiy asosda hal etish orqali ushbu integratsiyani yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW), 1979-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O‘RQ-562-son. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O‘RQ-561-son. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi ma’lumotlari.

[www.gov.uz/oz/wcu](http://www.gov.uz/oz/wcu)